

O‘zbekistonda «Talaba-yoshlar ijodiyoti» festivalining g’olib va sovrindorlarini taqdirlash hamda o‘quv yili yakuniga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o’tdi

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar kelajagiga katta e’tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun keng ko’lamli tashabbuslarni ilgari surmoqda. Bu kabi tashabbuslar, ayniqsa, madaniyat va san’at sohasida o‘z ifodasini topmoqda.

Bugun O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida «Talaba-yoshlar ijodiyoti» festivalining g’olib va sovrindorlarini taqdirlash, o‘quv yili davomida samarali pedagogik faoliyatini olib borgan professor-o‘qituvchilar, o‘z vazifasiga ma’suliyat bilan yondashgan ishchi-xodimlarning mehnatlarini e’tirof etish hamda 2023/2024-o‘quv yili yakuniga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o’tdi.

Tadbirda institut rahbariyati, Prezident Administratsiyasi hamda Madaniyat vazirligi mutasaddilari ishtirok etishdi. Bayram tadbirini Madaniyat vazirining birinchi o‘rinbosari Avazxon Tadjixanov va institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev kirish so’zi bilan ochib berishdi.

Festival davomida o‘z iqtidori va salohiyatini har tomonlama namoyish eta olgan eng iqtidorli talabalar turli nominatsiyalar bo‘yicha diplom va esdalik sovg’alari bilan

taqdirlandi. Shuningdek, o'quv yili davomida o'zining fidokorona mehnati bilan barchaga o'rnak bo'lган professor-o'qituvchilar va ishchi-xodimlar ham alohida taqdirlandi. Ma'lumot o'rnida aytib o'tishimiz joiz taqdirlash marosimida 25 ta nominatsiya bo'yicha 48 nafar institut vakillariga esdalik sovg'alari taqdim qilindi.

Marosim bayramona konsert dasturi bilan davom etdi. Oliygohning ijodkor o'qituvchilari va talabalari tomonidan ijro etilgan kuy-ko'shiqlar, sahna ko'rinishlari va raqslar tomoshabinlar e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Mazkur festival yosh ijodkorlar uchun nafaqat o'z iqtidorini namoyon etish, balki kelajakdagi ijodiy faoliyatida yangi cho'qqilarni zabit etish uchun pillapoya vazifasini bajaradi.







0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida yoshlar kuni keng nishonlandi

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan talaba-yoshlar uchun bir qator sport va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlari tashkil etildi.

Jumladan, stol-tennisi, shaxmat, shashka, tosh ko'tarish va futbol kabi sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazildi.


Tadbirlar milliy cholg'ularimiz sadolari, kuy-qo'shiqlar ostida, yuqori kayfiyatda bo'lib o'tdi.

Ushbu jarayonda institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev ham ishtirok etib, talaba-yoshlarni bayram munosabati bilan tabrikladи.

Shuningdek, talaba-yoshlar vakillari bilan samimiy muloqot qilindi.

Bildirilgan takliflar va tashabbuslar muhokama qilinib, bu borada kerakli tavsiyalar berib o'tildi. Tadbirlar so'ngida osh tayyorlanib, talabalarga ularashildi.





Malakaviy imtihon

0'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining 2024-yil 8-maydagi 354/4-sonli xati bilan ma'qullangan institut huzuridagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi 05.01.09 – «Hujjatshunoslik. Arxivshunoslik. Kutubxonashunoslik» ixtisosligi bo'yicha o'tkaziladigan malakaviy imtihon haqida ma'lumot.

Janubiy Koreyaning Sungshin universiteti bilan hamkorlikda o'tkazildi

So'nggi yillarda O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rta sidagi madaniy aloqalar sezilarli darajada rivojlandi. Ushbu hamkorlik turli yo'nalishlarda amalga oshirilib, ikki mamlakat o'rta sidagi do'stlik va birodarlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu jumladan, ta'lif sohasidagi hamkorlik doirasida 2022-yil O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va Janubiy Koreyaning Sungshin universiteti o'rta sida memorandum imzolandi. Ushbu bitim madaniyat va san'at sohalarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish, professor-o'qituvchilar va talabalarning tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish, shuningdek, madaniy tadbirlarni birgalikda o'tkazishni nazarda tutadi.


Hamkorlik doirasida bir qator tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Ushbu tadbirlar ikki xalqning milliy madaniyatlarini va san'atini bir-biriga yaqinlashtirishga qaratilgan bo'lib, har ikki mamlakat madaniyatining boyligi va xilma-xilligini namoyish etadi.




Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Sungshin universiteti professori Kim Me Suk badiiy rahbarligida «Ipak yo'li yog'dusi» nomli konsert dasturi

namoyish etildi. Unda koreys va o'zbek milliy va zamonaviy raqslari ijro etildi. Tadbir davomida ikki xalqning madaniy merosi sahna yuzini ko'rdi.

Badiiy kechadagi jozibador ko'rinishlar o'quv teatriga tashrif buyurgan tomoshabinlar e'tirofiga sazovor bo'lди.

Mazkur tadbir hamkorlikning yanada rivojlanishiga xizmat qilib, O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi hamda kelgusida qo'shma loyihalarining yanada kengayishiga zamin yaratadi.





Prezident topshirig'iga oid vazifalar belgilab olindi

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 20-iyun kuni muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta'limga muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazilgandi.


Unda yurtboshimiz oliy ta'limga muassasalaridagi ilmiy izlanishlarning hayotiyligi va samaradorligiga e'tibor qaratib, ta'limga tizimiga qaratilayotgan e'tibor ilm-fan yutuqlarida o'z ifodasini topishi kerakligini ta'kidlagandi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodir Sayfullayev boshchiligidagi o'tkazilgan yig'ilishda davlat rahbari tomonidan muhandislik kadrlarini tayyorlash tizimida mavjud yutuq va kamchiliklar qayd etilgani, shu bilan birga, kelgusida sohada amalga oshirish lozim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab berilganini aytib o'tildi.

Yig'ilish davomida professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislarining tizimni rivojlantirish bo'yicha taklif va mulohazalari tinglandi. Prezident va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan farmon va hujjatlar ijrosi yuzasidan yuridik va jismoniy shaxslar murojaatlari bilan ishslash bo'yicha mutaxassis Umid Abraykulov axboroti eshitildi.

Shuningdek, reyting ko'rsatkichlarining bajarilish holati va tijoratlashtirish yo'nalishida ishlab topilgan mablag'lar sarhisobi qilinib, o'quv-uslubiy, ilmiy ishlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida belgilab olingan vazifalar ijrosi yuzasidan mas'ullar hisoboti tinglandi.

Muhokama so'ngida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda barcha jipslashgan holda harakat qilishi ta'kidlab o'tildi.





O'zbek Döner Sanoat va Madaniyat Institutining rektori oliygohning Farg'ona filiali faoliyati bilan tanishdi

Joriy yilning 21-iyun kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev oliygohning Farg'ona filialiga tashrif buyurib, filialda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar, o'quv binolari holati, axborot-resurs markazi faoliyati hamda 2024/2025-o'quv yiliga qabul jarayoni bilan yaqindan tanishdi.

Shuningdek, talabalar o'rtasida o'tkazilgan turli musobaqalar va tanlovlarda erishilgan natijalar, filialda yaratilgan sharoitlar va o'quv jarayonining samaradorligi o'rnatildi.





O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tadqiqotchi Baro Nurmanovaning san'atshunoslik fanlari bo'yicha dissertatsiya himoyasi bo'lib o'tdi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tadqiqotchi Baro Nurmanovaning «Zamonaviy o'zbek teatrida sahnaviy obraz yaratish masalalari» mavzusida san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi bo'lib o'tdi.



Tadqiqot mavzusining dolzarbliji va zarurati to'g'risida so'z yuritar ekan, jahon madaniy jarayonlarida teatr san'atining o'rni, xalqaro integratsion aloqalar va ijtimoiy-mafkuraviy munosabatlarni mustahkamlashdagi ahamiyati tobora ortib borayotganligi ta'kidlandi.

Dissertatsiyada dunyo sahna san'atida yuzaga kelayotgan yangi tendensiyalar, modernizm yo'nalishidagi oqimlar va uslubiy ifodaviy eksperimentlar teatrning ijodiy va badiiy-estetik ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilishi haqidagi fikrlar keltirildi. Shuningdek, jahon teatrlari dramaturgiya, rejissura, aktyorlik san'ati va boshqa komponentlarning badiiy yaxlitligini ta'minlashga intilayotgani va to'laqonli sahnaviy obraz yaratish yo'lida ijodiy eksperimentlar o'tkazayotgani ta'kidlandi.

Ilmiy ish natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- dramatik teatrlarda namunali aktyorlik talqinini jamoatchilik oldida tahlil qilish an'anasi yaratish;
- ustoz-shogird an'analarini saqlab qolish maqsadida aktyorlik va rejissorlik yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarni teatrlardagi ijodkorlar bilan bog'laydigan tizimni yo'lga qo'yish;
- O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti teatr san'ati fakultetidagi professor-o'qituvchilar va talabalarning xorijiy san'at ta'limi muassasalari bilan masofadan turib hamkorlik qilish tizimini ishlab chiqish;
- aktyorning sahnaviy obraz yaratishiga yordam beradigan ilmiy adabiyotlar va tarixiy shaxslarning sahnaviy obrazlari muhrlangan filmlarni tahliliy o'rganish amaliyotini aktyorlik va rejissorlik darslarida joriy qilish va boshqalar.

Muhokamaga ko'ra, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi Ilmiy kengashning deyarli barcha a'zolari dissertatsiyani bir ovozdan yoqlab ovoz berishdi.





**Oliy attestatsiya komissiyasi
raisi ishtirokida O'zDSMI
doktorantlari va**

tadqiqotchilar bilan davra suhbati o'tkazildi

Doktorantlar va tadqiqotchilar ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular tomonidan olib borilayotgan izlanishlar hamda erishilayotgan natijalar jamiyatni yangi bilimlar bilan boyitadi, fan va texnologiya taraqqiyotini tezlashtiradi.

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi raisi Ahmadbek Yusupovning O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida doktorantlar va tadqiqotchilar hamda yetakchi professor-o'qituvchilar bilan muloqoti o'tkazildi.

Ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan ushbu uchrashuv davomida uzlusiz ta'lif tizimining oliy ta'lifdan keyingi bosqichida dissertatsiya himoyalarini qanday shakllantirish kerakligi haqida so'z yuritildi. Shuningdek, bu jarayonda duch kelinadigan to'siqlar va muammolar, OAK nizomi bo'yicha tadqiqotchilarga taqdim etilayotgan yengilliliklar va imkoniyatlar haqida ham batafsil ma'lumot berildi.

Davra suhbatida institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev ham ishtirok etib, doktorantlar va tadqiqotchilarning ilmiy faoliyati uchun barcha shartsharoitlar yaratilishini ta'kidladi.

Yig'ilishda ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashda san'at va madaniyat sohasida ilmiy daraja berish tartibi hamda tadqiqotchilarning xorijiy mamlakatlarda amaliyot o'tashi masalalari ham muhokama qilindi.

Bundan tashqari, ilmiy yangiliklarni ta'lif jarayoniga integratsiya qilish, ijodiy ishlarni ilmiy ishga tenglashtirish kabi muhim jihatlar, shuningdek, ilmiy loyihalarni tijoratlashtirish, plagiat materiallarga qarshi

kurashish va ilmiy unvon sohiblarining monitoring qilish masalalari yuzasidan yo'llangan savollarga atroflicha javob berildi.

Uchrashuvda doktorantlar va tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yo'l-yo'riqlar va tavsiyalarga ega bo'ldi. Mutaxassis tomonidan berilgan ma'lumotlar ularga duch keladigan muammolarni hal qilishda va izlanishlarni yanada samarali olib borishda yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, fan va ta'lim tizimining rivojlanishiga, ilmiy salohiyatning yuksalishiga xizmat qiladi.

